O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**FARG'ONA VILOYATI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**Jismoniy tarbiya va amaliy fanlar kafedrasi**

# Qo`shtepa tumani 40-maktab o`qtuvchisi Azimova S.“ Ikki echki ertagi asosida haykal ishlash” mavzusidagi

# Ochiq dars ishlanmasi

**Farg`ona -2012 yil**

# 1-Sinfda „Ikki echki ertagi asosida haykal ishlash” mavzusini o`tish uchun dars ishlanmasi.

| | |
|---|---|
| **Mavzu:** | Ikki echki ertagiga haykal ishlash 3-chorak |
| **Maqsad vazifalar.** | Maqsad:<br>O`quvchilar „Ikki echki ertagiga haykal ishlash” da kerakli materiallar asbob uskunalar hamda ularni tayyorlash va ularni foydalanib echki haykalini yasash o`rganiladi, gigiyena qoidalariga rioya qilish hamda haykalni turli ussullarini o`rganadi, o`quvchilarning ijodkorlik qobilyati o`stiriladi.<br>Vazifalar:<br>„Ikki echki ertagiga haykal ishlash” mavzusi bo`yicha o`quvchilar loy yoki plastinadan foydalanib etak qahramonlarini yasashga nisbatan qiziqish uyg`otadi. Ularda mavzu asosida bilim va ko`nikmalarini shakillantiradi va kengaytiradi.<br>-„Ikki echki ertagiga haykal ishlash” mavzusiga oid materiallarni O`quvchilar tomonidan yakka va guruh bo`lib o`zlashtirib olishlari hamda materiallardagi amaliy mashg`ulot yoki savollarni qay darajada o`zlashtirilganligini nazorat qiladi. Ularning bilimini baholaydi. |
| **O`quv jarayoning mazmuni.** | O`quvchilar haykal ishlash unda ishlatiladiga nskaypel, loy, plastinalar haqida ma`lumotlar egallaydi, o`quvchi asbob va ish o`rnini toza saqlashni, gigiyena qoidalariga rioya qilishni hamda turli xil usullarda haykal ishlashni o`rganadi.<br>O`quvchilarijodkorligi o`sadi. Haykal ishlash tehnalogiyasidan foydalanib haykaltaroshlar tomonidan yaratilgan ish namunalari va sanat durdonalarini o`rganadi tahlil qiladi. |
| **O`quv jarayonini amalga oshirish tehnalogiyasi.** | Uslub: Og`zaki bayon qilish amaliy mashg`ulot.<br>Shakl: Suhbat – munozara amaliy mashg`ulot kichik guruh va yakka tartibda ishlash.<br>Vosita: Loy, plastina, skaypel.<br>Usul: Tehnalogik xarita<br>Nazorat: og`zaki bazorat savol – javob kuzatish.<br>Baholash: Rag`batlantirish 5 balli tizim asosida baholash. |

| | |
|---|---|
| **Kutilayotgan natijalar.** | O`qituvchi:<br> ,,Ikki echki ertagiga “ haykal ishlash  mavzusi qisqa vaqt ichida barcha o`quvchilar tomonidan  erishiladi  o`quvchilarning faoligini oshiradi ularda darsga, kasb –hunarga nisbatan qiziqish uyg`otadi. Nazariy ba amaliy mashg`ulot jarayonida o`quvchilar baholanadi. O`z oldiga qo`ygan maqsadga erishadi, O`quvchilar tomonidan mavzuni o`rganish uni xotirada  saqlash  amaliy mashg`ulot jarayonida qo`llay olish, savol berish va sabollarga javob brrishga o`rgatadi.<br>O`quvchi:<br>,,Ikki echki  ertagiga”  haykal ishlash  bo`yicha yangi bilimlarni egallaydi. Yakka xolda guruh bo`lib ishlashni o`rganadi. Loy va plastilinlar bilan ishlash ko`nikmasi rivojlanadi va ijofkorlik qobilyati o`sadi. Oz –o`zini nazorat qolishni o`rganadi. O`quvchilarning ijofkorligi o`sadi. Qisqa vaqt ichida ko`p ma`lumotga ega bo`ladi va baholanadi. |
| **Uyga vazifa** | O`qituvchi:<br> ,,Ikki echki ertagiga”  haykal ishlash  mavzusi bo`yicha qoshimcha yangi ma`lumotlarni topish. Haykaltaroshlik ijod namunalari tahlil qilish va o`quvchilar yoshiga moslashtirish , kelgusi dars jarayoniga tadbiq qilish.<br>O`quvchi:<br>,,Ikki echki ertagiga”  haykal ishlash  mavzusi bo`yicha olgan bilim ko`nikma va malakalarini amaliy mashg`ulot jarayonida qo`llash. |
| **Kelgusi rejalar (tahlil o`zgarishlar)** | O`qituvchi:<br>Yangi pedogik tehnalogiyalarini o`zlashtirish dars jarayoniga tadbiq etish. Takomillashtirish o`z ustida ishlash. Pedagogik mahoratini oshirish.<br>O`quvchi:<br> Shu mavzu asosida haykaltaroshlar rassomlar haqida qoshimcha ma`lumotlar bilan tanishib ijodiy qobilyatini rivojlantiradi. O`zining va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi. |

**Dars mavzusi**: Ikki echki ertagiga haykal ishlash.

**Darsning talimiy maqsadi**: O`quvchilarga haykaltaroshlik san`ati haqida umumiy tushunchalar berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O`quvchilarga haykal ishlashda ishlatiladigan materillar asbob- uskunalar hamda ularda tayyorlash va ulardan foydalanish qoidalarini bilish.

**Darsning rivojlantirish maqsadi:** Haykalarni rueli xil ussularini o`rgatish. O`quvchilar ijodkorligini o`stirish.

**Darsni jihozlahs:** „Ikki echki ertagiga haykal ishlash" mavzusi uchun tehnalogik xarita haykaltaroshlikda ishlatiladigan asboblar (skaypel loy plastina)

**Darsda foydalaniladigan tehnalogiya:** Hamkorlikda o`qitish tehnalogiyasi.

**Dras metodi:** „Suhbat" „Aqliy hujum" metodi.

## Darsning borishi.

| | | |
|---|---|---|
| **1.** | Tashkiliy qism<br>a) Salomlashish<br>b) Davomatni aniqlash<br>c) O`quvchilarni darsga tayorgarligini tekshirish<br>d) Guruhlarga bo`lish<br>Bu vaqtda bevosita o`quvchilarni psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish lozim. | |
| **2.** | O`tilgan mavzuni mustahkamlash. „Aqliy hujum" metodi.<br>„Haykal" nima?<br>O`quvchilar tomonidan berilgan javoblari qayd etib beriladi.<br>Oqitubvchi tomonidan berilgan savollarga javob beradilar. | |
| **3.** | Yangi mavzu bayonida „hamkorlikda bajarish" tehnalogiyasi „Kichik guruhlarda ishlash" metodidan foydalanamiz. Sinf o`quvchilari 5-6 kishilik gutuhlarga (mevalar nomi yoki sanoq tarzda) bo`linadi. Guruhlar o`tilgan mavzuni bayonini o`zi o`rganligi bo`yicha tushuntiriladi. Yangi mavzu shu guruhda yaxlit holda qayt ishlanadi. | |

| | | |
|---|---|---|
| **4.** | Yangi mavzu yuzasidan o`quvchilar bilimini mustahkamalsh. Savol javob orqali o`quvchilar bilimini mustahkamlanadi. | |
| **5.** | Amaliy mashg`ulot: O`quvchilar tehnalogik xarita bilan ishlash va plastinadan ,,Echki" yasash. | |
| **6.** | Amaliy mashg`ulot yuzasidan o`quvchilar bilimini mustahkamlash va baholash. | |
| **7.** | Uyga vazifa berish va darsni yakunlash. | |

## I Tashkiliy qism:

O`quvchilar bilan salomlashish, davomatini aniqlash, o`quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish.

## II O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

O`quvchilarda " Aqliy hujum" metodidan foydalaniladi.

- O`quvchilar har bir fikr-mulohzalar uchun rag`batlantiriladi.
- O`qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob beradilar.

## III Yangi mavzuni o`rganish

O`qituvchining kichik ma`ruzasi.

-Haykaltaroshlik-lotibcha ,,skulpo" so`zidan olingan bo`lib qattiq materiallarga qiziqish kesish o`yish, tayyorlash orqali ishlov berish ma`nosini anglatadi.

Haykaltaroshlik asarlari makonda ma`lum hajmga ega bolgan detallar shakillar orqali yaratiladi. Uning nafis haykaltaroshlikda ,,Maishiy plastika" deyiladi. Nafiz haykaltaroshlikda kishining diqqatini o`ziga tezda jalp qiluvchi materiallar: chinni spool yog`och metal va qimmatbaho tohlar fil suyagi kabilardan foydalaniladi. Haykaltaroshlarning keng tarqalgan material turlaridan biri loy yoki plastinadir. Bu material turlaridan haykaltaroshlar haykal maketini tayyorlashda xalq amaliy san`at ustalari esa o`yinchoqlari va mayda plastika tayyorlashda foydalaniladilar. Loydan turli idishlar yasash va ularni tegishli ranglarda bo`yash O`zvbekiston juda

qadim zamonlardayoq rivojlangan Kulolchilik san`ati buyumlariga lagan, tovoq, choynak, payola, va chinni isdishlar loydan ishlangan o`yinvhoqlar kiradi.

Tayyorlangan yaxlit loy yoki palstilin bo`lagi olinadi. Echkining suratiga qarab uning o`yinchoq nusxasini yasash uchun qanday qismlar kerak bo`lishi o`quvchilar bilan birgalikda aniqlanadi va  ularning o`lchamiga moslab loy yoki plastilin bo`lakchaari tayyorlanadi. So`ng har bir ajratilgan bo`lakchaga tanlangan echki o`yinchog`ining qismlarga xos shakillar berib chiqaladi. Bunda tana va umumiy qismlar dastlabki yig`ish holatiga keltiriladi. Barcha tayyor qismlar o`z o`rniga o`rnatib chiqiladi. Ulangan joylar yaxshilab silliqlanib umumiy tanaga biriktirib yuboriladi. Keyin tayyor echkining sirti suvda namlangan latta yoki barmoq bilan silliqlab chiqiladi. So`ng tayyor o`yinchoq steklar yordamida badiiy ishlov beriladi. Echki o`yinchog`ini pardozlashdan ko`zlanadigan maqsadlar:

1. O`yinchoqni tashqi k`orinishini chiroyli qilish yaxshilash buyumga qo`yiladigan sanitariya gigiyena talablariga amal qilishdan iborat.
2. O`yinchoq sirtini pardozlashdan oldin ularni dastlabki tayyorlovdan o`tkaziladi. Shundan so`ng sirtdagi g`adur budurlar yoriqlar va oshqa nuqsonlar qolmasligi kerak.
3. O`yinchoq sirti batmoq bilan pardozlangandan so`ng unda hech qanday dog`  ifloslar va tirnalgan joylar qolmasligi kerak.

IV. Yangi  mavzu yuzasidan o`quvchilar bilimini mustahkamlash.

O`quvchilar bilimini  savollarga berilgan javoblar orqali mustahkamlaydi.

1. Haykal isjlashda qaysi asbob foydalaniladi?
2. O`yinchoq haykalini ishlashda qaysi bo`laklar tayyorlab olinadi?
3. Haykal uchun qanday pardoz beriladi?
4. Bolaklar qanday joylshtiriladi?

Amaliy mashg`ulot.

Amaliy mashg`ulot o`qituvchi nazorati ostida amalga oshiriladi o`quvchilar quyidagi bosqichlar asosida individual  tarzda echki o`yinchog`ini yasaydilar.

1. **,,Echki”** o`yibchog`ini yasash uchun loy yoki plastinalar taxt qilinadi.
2. Texnalogik xaritadan olastilindan ,,echki” o`yinchog`I o`lchamlari olinadi.

3. O`lchamlar yordamida o`yinchoq bo`laklari ajratib olinadi.
4. Har bir bo`lak nisbatlari silliqlab chiqiladi.
5. Nisbatlar  o`lchami tenglanadi.
6. Bolaklar dumaloqlab ishlov beriladi
7. Tanaga birma bir birlashtirilib chiqiladi.
8. Birlashgan  joylarga ishlov beriladi.
9. Tayyor haykalga so`nggi ishlov pardoz berish.
10. Iqtidorli ijofkor o`quvchilarga amaliy mashg`ulot vaqtida qo`shimcha topshiriqlar beriladi.

VI. Amaliy  mashg`ulot yuzasidan o`quvchilar bilimini mustahkamlash va baholash.

O`qituvchi o`quvchilar ishini birma-bir ko`rib chiqadi.

,,Echki"  o`yinchog`ini tayyorlash yuzasidan savol berib nelgilab olingan ish tartibga qarab  bajargan ishlari asosida balla qo`yiladi. O`quvchilarga qo`yilgan ballar izohlanadi. Yakunlanmagan ishlarga  ball rag`batlantirish yoki maslahat berish orqali amalga oshiriladi.

VII Uyga vazifa berish,  darsni yakunlash.